

ABDULLA QODIRIY ASARLARI TILI

Sulaymonova Jumagul Muzafar qizi

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Muratova Nafisa Baxtiyarovna

Ilmiy rahbar: O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola XX asrning adabiy porloq yulduzi, o'zbek romanchiligining asoschisi, yozuvchi Abdulla Qodiriylasarlari tilining hozirgi o'zbek adabiy tiliga solishtirma tahlili to'g'risida. Maqolada Abdulla Qodiriyning eski o'zbek adabiy tilidan va XX asrga oid so'zlardan qanday foydalangani haqida ham bilib olasiz.

Tayanch so'zlar: sarboz, personaj, kelishik qo'shimchalari, hozirgi o'zbek adabiy tili, eski o'zbek adabiy tili, ruscha-yevropacha so'zlar.

Yangi o'zbek adabiyotining ulkan namoyondasi, o'zbek romanchiligining asoschisi, o'z asarlari bilan nafaqat o'zbek xalqining, balki O'rta Osiyoning sevimli yozuvchisiga aylangan Abdulla Qodiriylas 1894-yil 10-aprel kuni Toshkent shahrida tavallud topgan. Otasi Qodirbobo sarboz bo'lgan va rus bosqini davrida Toshkent mudofaasida ishtirok etgan. Otasining saroyda xizmat qilgani va ko'p voqealarni boshidan kechirgani sababli Abdulla Qodiriyning deyarli barcha asarlarida saroy hayoti va rus bosqini davri voqealari jonlantiriladi.

Abdulla Qodiriylasarda eski o'zbek adabiy tilining ta'siri bo'lsa-da, asarlarini xalq uchun tushunarli tilda yozishga harakat qilgan va bu haqda shunday fikr bildirgan: "Yozuvchining o'zigina tushunib, boshqalarining tushunmasligi katta ayb. Asl yozuvchilik aytmoqchi bo'lgan fikrni hammaga barobar anglata bilishda, oraga

anglashilmovchilik solmaslikdadir." U.Tursunov va B.O'rino boyev ta'biri bilan aytganda, "jonli xalq tilining imkoniyatlaridan dadil va samarali foydalanib, to'laqonli nasriy asarlar yaratishda boshqa yozuvchilardan ilgarilab ketdi." [U.Tursunov, B.O'rino boyev, A.Aliyev. - 2-qayta ishlangan va to'ldirilgan nashri. - T.: O'qituvchi, 1995. 227-bet]

Abdulla Qodiriy har bir asarida personajlarning tiliga alohida e'tibor qaratgan, xalq so'zlashuv tilini asarlarida qayta ishlab, tilning yanada boyishiga o'z hissasini qo'shgan. Kelishik qo'shimchalaridan, jumladan, "Baxtsiz kuyov" dramasida jo'nalish va chiqish kelishilarining qo'shimchalaridan faol foydalangan.

(Solih) - Qani, amaki, ko'rpachag'a o'lturing! (qo'li bilan ishorat qilur).

(Abdurahim) - Xo'b, xo'b, choying ham bor ekanmi? O'zing ham o'ltur (o'ltururlar), omin, Alloh ishingg'a rivoj bersun, Allohu akbar (fotiha o'qurlar).

(Solih) - Xush kelubsiz, amaki nechuk xudo yarlaqadi, kelin oyim, ukalarim, eson-omon yurubdilarmi? Qani, nong'a marhamat qiling (choy quyar)...

(Abdurahim) - Solih, bolam, aytaber, o'ylamaki amakim mendan pul so'rab olur deb, oqchang o'zingg'a buyursun, qo'rhma!

(Solih) - (Yerga qarab, ozroq o'ylab) Uch yuz so'mg'a yaqin oqcha yig'dim...

(Ellikboshi) - ... besh olti kundin so'ng sanduqda yotadur, ... tiying'a arzimaydurg'an narsalarga kuyov bechoradin ko'p oqcha olub ko'chadagilarg'a osh, non berub isrof qilsangiz, yana keragi yo'q.

Yuqorida ta'kidlanganidek, bu asarda Navoiy va Bobur tiling ta'siri bor. Qodiriy asarlarida qo'llangan kelishiklar eski o'zbek adabiy tili asoschisi Alisher Navoiy va shu tilda ijod qilgan Bobur asarlarida ham xuddi shu yo'sinda qo'llangan:

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadni,

Ko'zlarimg'a kecha tong otquncha uyqu kelmadni. (Navoiy)

Seni ko'rmaslik ko'ngulga g'am edi, jonimg'a xam,

G'ayrning ko'rmakligi bo'ldi alam uzra alam.

Yo sening ko'rmakligindin g'ayr bo'lsa erdi daf',

Yo seni ko'rmaydururmen, g'ayrni ham ko'rmasmen. (Bobur)

Eski o'zbek adabiy tilida jo'nalish kelishigi va chiqish kelishigi -g'a, -din shaklida ishlataligan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida esa bu qo'shimchalar -ga, -ka, -qa, -dan ko'rnishida qo'llaniladi.

Qodiriy asarlida uchraydigan, ruscha-yevropacha tildan kirib kelgan so'zlar ham o'zbek tilida o'zlashib, hozirgi kunda ham iste'molda ko'p qo'llaniladi. Chunonchi, politsa, pulemit, traktor, kolxoz, gektar, kolaska (коляска), stol, komissiya, doktor (врач), elektr, budjat (бюджет), partiya, pasport [U.Tursunov, B.O'rinooyev, A.Aliyev. - 2-qayta ishlangan va to'ldirilgan nashri. - T.: O'qituvchi, 1995. 231-bet] so'zlari hozirgi kunda ham so'zlashuv va rasmiy uslublarda keng qo'llaniladi. Yana shunisi o'ziga xoski, Qodiriyning "Tinch ish" hikoyasida ko'pgina davlat nomlari talaffuzi bo'yicha aynan yozilgan: "Bu zot diniy bir olim bo'luv ustig'a siyosatdan ham xabarsiz emas edi. Amrika, Girmoniya, Ongliya, Yapo'niya, Faransiya, Rusiya, shuning kabi har davlatlarni yodlab bilar edi."

Abdulla Qodiriy o'z asarlari orqali xalqimizning hayotida ro'y bergan voqealarni sodda tilda aks ettira olgan, shu bilan birga eski o'zbek adabiy tili va XX asr o'zbek tili hamda rus-yevropacha so'z unsurlaridan mahorat bilan foydalangan mohir yozuvchi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. U.Tursunov, B.O'rinooyev, A.Aliyev "O'zbek adabiy tili tarixi" darslik. Toshkent: "O'qituvchi", 1995.
2. uz.m.wikipedia.org sayti.
3. www.ziyouz.com internet kutubxonasi
4. Abdulla Qodiriy "Baxtsiz kuyov" dramasi.
5. Abdulla Qodiriy "Tinch ish" hikoyasi.
6. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbanova, Z.Yunusova, M.abuzalova "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darslik. Toshkent: "Fan va texnologiya", 2010.